

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

## № 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



### ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 6 (3)-2023*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ .....	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР .....	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR .....	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ .....	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA .....	43-48

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI .....	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> КОМПАНИЯЛАР САМАРАЛИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ О'РНИ .....	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ .....	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ .....	75-80
<i>Абдиева Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ .....	81-91
<i>Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ .....	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....	109-114

*Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё*  
 АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ  
 ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ..... 115-125

*Худаярова Хуршида Абдуназаровна*  
 ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ  
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 126-132

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли*  
 РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

*Аликулов Хусниддин Акбарович*  
 ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .142-151

*Саидова Камола Усканбаевна*  
 РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ  
 СИФАТИДА ..... 152-156

*Shirinov Anvar Qanoatovich*  
 MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIIY-  
 FALSAFIY TAHLILI ..... 157-162

*Хасанов Бобуржон Хакимович*  
 ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ  
 ОЛИШНИНГ ҲОЖИВИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 163-167

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna*  
 AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF .....168-172

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Rustamova Shaxnoza Abduraximovna*  
 MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNINI ..... 173-180

*Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi*  
 MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH  
 TENDENSIYALARI ..... 181-191

*Turg'unova Fazilat Rustam qizi*  
 PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI ..... 192-197

*Saidov O'lmas Raxmatovich*  
 O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI ..... 198-206

*Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna*  
 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA ..... 207-213

*Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li*  
 MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ  
 TA'SIRINING USULLARI ..... 214-219

*Murodova Nilufar Karomatovna*  
BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI ..... 220-224

*Ochilova Hilola Husan qizi*  
XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR ..... 225-229

*Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li*  
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK  
TADQIQI ..... 230-238

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*  
"MULLO NASRIDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA ..... 239-245

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*  
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН  
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ ..... 246-256

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Jumayev Rustam G'aniyevich*  
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 257-263

*Бозорова Муслима*  
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ..... 264-270

*Samadova Sarvinoz Samad qizi*  
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

*Жўраев Воҳид Тожимаматович*  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ  
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ ..... 276-288

*Бозорова Назокат*  
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ  
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ  
СИФАТИДА ..... 289-295

*Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li*  
МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI  
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI ..... 296-301

*Sharipova Sitara Xaydarovna*  
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN  
FOYDALANISH ..... 302-307

*Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna*  
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI  
QO'LLASH ..... 308-312

---

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI .....	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI-ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI .....	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI .....	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	350-356



13.00.00 – Педагогика фанлари

**Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li**

Namangan davlat universiteti

Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi,

email: [satvoldiyevfakhriddin773@gmail.com](mailto:satvoldiyevfakhriddin773@gmail.com)

**МАКТАБ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH  
TEHNOLOGIYALARI BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA  
NATIJALAR TAHLILI**

**Annotatsiya.** So'ngi yillarda mamlakatimizda ro'y berayotgan huquqiy islohotlar xalqimiz huquqiy savodxonligini oshirish hamda huquqiy tafakkurini yanada yaxshilashga hizmat qilmoqda. Ushbu maqolada huquqiy tafakkur tushunchasi, mazmun mohiyati, bugungi kundagi zaruriyati, olimlar tomonidan berilgan fikrlar hamda maktab o'quvchilarini huquqiy tafakkurini oshirish borasida qilingan ishlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy tafakkur, texnologiya, metod, mohiyat, pedagogika, tahlil, eksperiment.

**Сатволдиев Фахриддина Акбарали ўғли**

Наманганский государственный университет

Преподаватель кафедры национальной

идеи и правового образование

**ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКСПЕРИМЕНТОВ И АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ПО ТЕХНОЛОГИЯМ  
ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОГО МЫШЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ**

**Аннотация.** Правовые реформы, проводимые в нашей стране в последние годы, служат повышению правовой грамотности нашего народа, дальнейшему совершенствованию его правового мышления. В данной статье говорится о понятии правового мышления, его содержании, его необходимости на сегодняшний день, мнениях, высказанных учеными, и работе, проделанной по совершенствованию правового мышления школьников.

**Ключевые слова:** Правовое мышление, технология, метод, сущность, педагогика, анализ, эксперимент.

**Satvoldiyev Fakhriddin Akbarali ugli**

Namangan State University

Teacher of the Department of

National Idea and Legal Education

**ORGANIZATION OF EXPERIMENTS AND ANALYSIS OF RESULTS REGARDING THE  
TECHNOLOGIES OF FORMATION OF LEGAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN**

**Abstract.** The legal reforms that have been taking place in our country in recent years serve to increase the legal literacy of our people and further improve their legal thinking. This article talks about the concept of legal thinking, its content, its necessity today, the opinions given by scientists, and the work done to improve the legal thinking of schoolchildren.

**Key words.** Legal thinking, technology, method, essence, pedagogy, analysis, experiment.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N39>

**Kirish.** Mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarnig tub nefgizida inson huquq va erkinliklarining kafolatlari hamda huquqiy demokratik davlatni barpo etish g'oyasi yotganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, yaqinda xalqimiz tomonidan maqullangan yangilangan Konstitutsiyada ham inson erkinliklari va kafolatlariga urg'u berilganligi ko'p bor ta'kidlanmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, huquqiy demokratik davlat qurish uchun shuning o'zi yetarli? Huquqiy demokratik davlat qurish uchun huquqiy islohotlarni demokratik ruhda amalga oshirish bo'lsa, ikkinchi navbatda xalqning huquqiy savodhonligi yaxshi bo'lib, huquqiy tafakkuri shakllangan bo'lishi zarur. Huquqiy tafakkuri shakllanishi natijasida fuqarolar huquq, uning funksyalari haqida yetarlicha bilimga ega bo'ladi. Keyin esa ushbu bilimlar natijasida mamlakatda mavjud normativ – huquqiy hujjatlarni tahlil qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan ta'minlash bir taraf, uni fuqarolar bilishi, qabul qilishi va unga amal qilishi bir alohida vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish, fuqarolar huquqiy tafakkurini shakllantirish uchun eng yaxshi joy bu – maktabdir. Maktab o'quvchilarini huquqiy tafakkurini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Maktab dargohi insonga eng dastlabki, yodda qoladigan, zaruriy bilimlarni beruvchi hamda keng qamrovga ega bo'lgan universal dargohdir. Maktabda olingan bilim va tarbiya butun umr yodda qoladi. Mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kungacha maktablarda huquq darslari o'tilib o'quvchilarni huquqiy tafakkurini shakllantirishga hizmat qiladi. Lekin bu borada qilingan ishlar yetarli emas. Bunga bir qator sabablar mavjud. Birinchi navbatda huquq fanlaridan dars beruvchi mutahassis kadrlarni yetishmasligi bo'lsa, ikkinchi navbatda darslarni o'tilishida qo'llanuvchi metod va texnologiyalarni eskirganligi va zamon talablariga mos emasligidir. Aynan mana shu masala bizni tadqiqot olib borishimizga turtki berdi. Bugungi kunda qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarni zamon talabariga javob bermayotganligi, bu darslarni zerikarli bo'lib qolishiga va o'quvchilarni qizqishi so'nib borishiga hizmat qilayotganligi huquq darslarining samarasiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish, ba'zi texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini amaliyotga joriy qilish orqali ushbu muammoga ma'lum darajada yechim topishga harakat qildik.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Huquqiy tafakkurini shakllantirish, maktab o'quvchilarini huquqiy ta'lim va tarbiyasini oshirishning muhim elementlaridan biridir. O'quvchilarni huquqiy jihatdan tafakkur qilishga o'rgatish orqali ularda atrof muhitda bo'layotgan voqelikka huquqiy baho berish malakasini shakllantirish mumkin. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni.... Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, bilologiya)ning tadqiqot obyekti hisoblanadi [1; b. 64]. Shu jumladan huquqshunoslikda ham huquqiy tafakkur tushunchasi keng o'rganiladigan sohalardan biri hisoblanadi. Huquqiy tafakkur tushunchasini mazmun mohiyatini ochib berishga hizmat qiluvchi bir qator yuridik va falsafiy adabiyotlarda olimlarni fikrlari berilgan bo'lib ular ushbu tushunchani yaxshiroq anglab yetishimizga yordam beradi.

Bir qator yuridik adabiyotlarda huquqiy tafakkur bilan huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat tushunchalari yonma – yon holatda keladi. Huquqiy tafakkurni shakllanishida huquqiy ongning o'rni beqiyos bo'lib, bir – biridan ajralmagan holatda bir butunlikni tashkil

etadi. Bu haqida T. V. Avakyan o'z tadqiqotlarida: Huquqiy tafakkurni huquqiy ongdan ajratib bo'lmaydi, subyektiv bo'lmagan, irratsional boshlang'ich yo'q deb hisoblaydi va u doimo aqliy tajribalar bilan davom etadi. Intuitiv huquq – huquqiy ong va huquqiy tuyg'u birligining natijasidir.[2; c.18] – deya o'z fikrlarini izohlab beradi. Maktab o'quvchilarini huquqiy tarbiyasini shakllantirish uchun ham huquqiy ong va huquqiy tafakkurni birgalikda yuksaltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarining psixofiziologik holati ham tuyg'u, ong va tafakkurni birgalikda shakllantirishni taqozo etadi.

V.S.Babayev o'z fikrlarini bayon etib: Huquqiy tafakkur – kishilarning huquqqa va jamiyat hayotidagi huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi g'oyalar va tuyg'ular yig'indisidir[3; c. 302]" deya ta'rif beradi. Ushbu soha vakillaridan yana biri S. V. Kuklin huquqiy tafakkur bilan huquqiy madaniyat tushunchalarini o'zaro aloqadorligini va bu aloqadorlik huquqiy mentalitet orqali amalga oshirilishini ta'kidlab o'tgan. U o'z maqolalaridan birida: Huquqiy madaniyatning va huquqiy tafakkur bilan aloqasini huquqiy mentalitet orqali o'rnatish mumkin. Bunday yondashuv bilan huquqiy tafakkur ijtimoiy va huquqiy voqelikni o'zlashtirishning o'ziga xos yo'llarini belgilaydigan subyektlarning ma'lum bir doirasi huquqiy madaniyatining asosiy tizim tuzuvchi elementiga aylanadi. Aynan huquqiy tafakkur kasbiy huquqiy madaniyat va ilmiy jamoatchilik madaniyati negizida yotadi. U yoki bu jamiyatning huquqiy mentaliteti va huquqiy madaniyati huquqiy tafakkurni shakllantiradi va o'z navbatida u tomonidan qayta quriladi.[4; c. 80] Ushbu fiklarni mulohaza qiladigan bo'lsak, huquqiy tafakkurni shakllantirishda huquqiy mentalitet va huquqiy madaniyatni tutgan o'rniga alohida to'xtalib o'tilmoqda. Bizning xalqimiz ham boy va o'ziga xos mentalitetga hamda madaniyatga ega. O'quvchilar huquqiy tafakkurini shakllantirishda ham o'z mentalitetimiz va madaniyatimizdan kelib chiqqan holda huquqni qadryatlarimiz bilan birgalikda o'rgatish va ongiga singdirishni yo'lga qo'yish zarur.

N.M. Yurashevich huquqiy tafakkurga quyidagicha ta'rif beradi: "Huquqiy tafakkur - bu huquqiy voqelikni va unga (jamiyatning ijtimoiy-huquqiy munosabatlari va qadriyat yo'nalishlariga) baholovchi munosabatni aks ettiruvchi tuyg'ular, odatlar, g'oyalar, baholashlar, qarashlar, nazariyalar, huquq subyektlarining g'oyalari tizimidir. U o'tmishdagi, amaldagi yoki kutilayotgan qonunga va shu bilan huquqiy ahamiyatga ega vaziyatlarda ularning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vazifani bajaradi[5; c. 182]. Ushbu olim huquqiy tafakkurni shakllantirish orqali atrof muhitni, bo'layotgan voqeliklarga huquqiy baho berish qobilayotiga ega bo'ladi. Bu esa bevosita siyosiy savodxonlikni oshirishga ham hizmat qiladi. Huquqiy tafakkurning o'ziga xos funksiyalari ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilar ongida huquqiy bilim va malakalarni oshirish jarayonida muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Huquqiy tafakkurning asosiy funksiyalari huquqiy ko'rsatmalarni va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan voqelik holatlarni, o'z va boshqalarning hatti – harakatlarini tushunish, tushuntirish va izohlash, vaziyatlarning izohlanishini prognoz qilish, huquqiy voqelikni tiplashtirish va toifalash, huquqni muhofaza qilish, va qonuniylashtirishni o'z ichiga oladi[6; c. 39-41]. Ushbu fikrlarda asoslab berilgan huquqiy tafakkurning asosiy funksiyalari biz o'quvchilarga o'rgatishimiz lozim bo'lgan maqsad va muddaolarimiz ochib berilgan. Demak, huquqiy savodxonlikni oshirish va huquqiy tarbiyani shakllantirishda huquqiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor berish, bu orqali, o'quvchilarda o'z hatti - harakatlarini avvalo o'zlari tushunishi, bularga huquqiy baho bera olishi, o'z harakatlariga qonuniy tus berish ya'ni huquqqa zid bo'lmagan harakatlarni sodir

etishdan qochish va bu orqali huquqni bevosita himoya qilishga erishish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi.

**Muhokama.** Huquqiy tafakkur haqida g'oya va nazariyalar ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lishiga qaramay mutahassislar, bu mavzu yuridik sohada eng kam o'rganilgan soha deb fikr bildiradi. Xususan, professor Neil MacCormick o'zining "Huquqiy tafakkur va huquq nazariyasi" asarida: Huquqiy tafakkur jarayonlariga nisbatan past qiziqish, ehtimol, bu huquq nazariyasining kamroq muammoli tomoni bo'lganligi bilan izohlanishi mumkin. Tarihiy nuqtai nazardan, masalan, huquqiy qarorlarni asoslash muammosi va kodifikatsiyalar bo'yicha munozaralar shunchalik jiddiyroq muammolar paydo bo'lganligi haqiqatdir. Nisbatan kam sonli faylasuflar o'z kuchlarini huquqiy tafakkur jarayonlariga bag'ishlaganliklari ajablanarli, chunki yurispridensiyaga kiritilgan barcha hissalar huquqiy tafakkur haqidagi taxminlarni o'z ichiga olishi kerak[7; p. 229].

Bir qator yuridik adabiyotlarda huquqiy tafakkur bilan huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat tushunchalari yonma – yon holatda keladi. Huquqiy tafakkurni shakllanishida huquqiy ongning o'rni beqiyos bo'lib, bir – biridan ajralmagan holatda bir butunlikni tashkil etadi. Bu haqida T. V. Avakyan o'z tadqiqotlarida: Huquqiy tafakkurni huquqiy ongdan ajratib bo'lmaydi, subyektiv bo'lmagan, irratsional boshlang'ich yo'q deb hisoblaydi va u doimo aqliy tajribalar bilan davom etadi. Intutitiv huquq – huquqiy ong va huquqiy tuyg'u birligining natijasidir[8; c. 18]. – deya o'z fikrlarini izohlab beradi. Maktab o'quvchilarini huquqiy tarbiyasini shakllantirish uchun ham huquqiy ong va huquqiy tafakkurni birgalikda yuksaltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarining psixofiziologik holati ham tuyg'u, ong va tafakkurni birgalikda shakllantirishni taqozo etadi.

O'quvchilarning huquqiy tafakkurini shakllantirishda yana bir e'tibor berish lozim bo'lgan jihati bu huquqiy tafakkurning tarkibiy elementlarini aniqlab olishdir. Taniqli rus olimi P. P. Baranov quyidagilarni huquqiy tafakkurning tarkibiy elementlari deya ta'rif bergan: Birinchi element – kognitiv huquqiy tafakkur insonning aqliy faoliyati orqali sodir bo'ladi. Ikkinchi element – protsessual yoki protsessual – baholovchi deb ta'riflanishi mumkin, chunki huquqiy tafakkur huquqiy bilim va ijtimoiy – huquqiy tajribani ularni qo'llashning amaliy usullariga, shuningdek baholash tabiatining nazariy umumlashtirilishi va xulosalariga aylantirish uchun intellektual jarayon vazifasini bajaradi. Uchinchi element – xulq atvordir, chunki huquqiy tafakkur natijalari muqarrar ravishda inson xatti – harakatlarida namoyon bo'ladi[9; c. 53]. Ushbu yuqorida keltirilgan huquqiy tafakkurning tarkibiy elementlarini shakllantirish uchun yangicha pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab o'quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish va shu bilan birga huquqiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash masalasi alohida metodik hamda texnologik yondashuvni talab qiladi. Huquqiy tafakkurning dastlabki elementini hosil qilish uchun huquqiy bilimni shakllantirish zarur. Kognitiv huquqiy tafakkur deyilganda asosan, insonni huquqqa oid bilimlarni hosil qilishga bo'lgan intilishdagi jarayonidir. Bunday hollarda o'quvchining huquqiy tafakkurini shakllantirish uchun birinchi elementni hosil qilish, ya'ni kognitiv tafakkurni rivojlantirish uchun avvalo huquqiy ta'lim orqali bilimlarini boyitib olish darkor. Bunda bizga "Darslik bilan ishlash" texnologiyasi yordam beradi. Tadqiqotimiz maqsadlaridan biri bo'lgan texnologiyalarni takomillashtirish maqsadida Darslik bilan ishlash texnologiyasini

takomillashtirib “Darslik – tezkorlik” deya qayta nomladik va yangicha yondashuv bilan aniq maqsaddan chetlashmagan holda amaliyotga joriy qildik.


Huquqiy tafakkurni shakllantirishning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lgan protsessual baholovchi hususiyatni rivojlantrish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni ma’qul deb topdik. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar bu texnologiyalarga qiziqishadi va ulardan foydalanishni yaxshi biladi. Shunday ekan, ta’lim va tarbiya tizimida ham bundan ununmli foydalanish darkor. O’qitishning yangi texnologiyasi sifatida “VAK o’qitish” (VAK teaching) dan foydalanish o’zining kerakli samarasini bermoqda. “VAK o’qitish” o’zi nima? VAK – samarasi va ta’sirini aniq ko’rish mumkin bo‘lgan zamonaviy o’qitish usullaridan biri.

Huquqiy tafakkurning uchunchi tarkibiy elementi bo‘lgan xulq – atvor ko’nikmasini shakllantirishga erishish uchun Ro’lli o’yinlardan foydalanishga qaror qildik. Ro’lli o’yinlar – dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy metodlardan biri bo‘lib, ushbu metodda o’quvchilar dars davomida o’rgangan nazariy bilimlarini turli ro’llarni ijro etish orqali o’zlarida sinab ko’rishadi. Ayniqsa huquq darslarida uchrashi mumkin bo‘lgan turli obrazlar jumladan: huquqbuzar, advokat, sudya, guvoh, profilaktika inspektori va boshqa shaxslarni ro’llarini ijro etish hamda ma’lum bir hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan holatlarni sahnalashtirish orqali o’quvchilar huquqiy tafakkuri va tarbiyasini oshirishga erishish mumkin[10;. b. 46.]

**Natijalar.** Tadqiqot doirasida ilgari surilgan nazariyalarni amaliyotda sinab ko’rish maqsadida Andijon, Farg’ona va Namangan viloyatlarida joylashgan bittadan tuman va shahar maktablarida tahsil olayotgan 8-sinf o’quvchilari tanlab olindi. Eksperimentni amalga oshirish va samaradorligini sinab ko’rish uchun tajriba va nazorat guruhlariga ajratib oldik. Tajriba guruhlariga yangi ishlab chiqilgan texnologiyalar yordamida darslar tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa darslar eski an’anaviy usulda tashkil etildi. Tajribadan oldin tajriba va nazorat guruhlaridan bilimlarini tekshirish maqsadida test va anketa so’rovnomalar olindi. Tajribalar o’tkazilgandan so’ng, yana ikkala guruhlardan yakuniy nazorat tekshiruvch o’tkazildi va natijalar solishtirildi.

Tajribadan oldin						
Guruh	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
Baho	“5”	“4”	“3”	“5”	“4”	“3”
O’quvchi soni	41	61	144	44	53	146
Tajribadan keyin						
Guruh	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
Baho	“5”	“4”	“3”	“5”	“4”	“3”
O’quvchi soni	129	82	35	53	62	126
Samaradorlik foizda	26,7 %			3,8 %		
Umumiy	22,9%					

Tajriba natijalarini tahlili shuni ko’rsatdiki, bir ishlab chiqqan tenologiyalar yordamida darslarni tashkil etish makab o’quvchilarini huquqiy tafakkurini oshirib, huquqiy ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi o’sish suratini diagramma shaklida ko’rsatishga harakat qildik.



**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, maktab o'quvchilarini huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy demokratik davlat qurishning muhim sharti bo'lib, bunda fuqarlarning huquqiy ta'lim va tarbiyasini maktablarda shakllantirishga e'tibor berish zarur. Buning uchun an'anaviy dars o'tishdan voz kechib zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish dardkor. Biz ishlab chiqqan texnologiyalar ham o'zini samaradorligini tajriba sinov ishlarida isobladi hamda mamlakatimizda mavjud umumiy o'rta ta'lim muassasalariga joriy qilish mumkin degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

#### **Адабиётлар/ Литература/ References:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. -B.164
2. Авакян, Т. В. Юридическое мышление в правоприменительном процессе: автореф. дис. ...канд. юрид. наук / Авакян Татьяна Владимировна. –Ростов н/Д, 2006. – 18 с.
3. Бабаев В. С. Теория государства и права – М. 2003 . С-302
4. С. В. Куклин. Правовая культура и правовое мышление в современном обществе. Вестник ЮУрГУ. Серия «Право». 2017. Т. 17, № 4, С. 80
5. Юрасевич Н.М. Эволюция понятия правосознания // Известия вузов. Юриспруденция. 2004. С.181
6. Овчинников А. И. Правовое мышление: теоретико-методологический анализ. С. 39–41, 76, 121, 255.
7. MacCormick, N. *Legal Reasoning and Legal Theory*, 229 (1978).
8. Авакян, Т. В. Юридическое мышление в правоприменительном процессе: автореф. дис. ...канд. юрид. наук / Авакян Татьяна Владимировна. –Ростов н/Д, 2006. – 18 с.
9. Баранов, П. П. Правовая сфера духовного мира человека. П. П. Баранов. СевероКавказский юридический вестник.1998. № 1. –С. 53
10. Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li. "Maktab o'quvchilarining huquqiy tafakkurini shakllantirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yetakchi bo'g'ini sifatida." Ta'lim fidoyilari 13 (2022): b.46-49

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).